Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan ekspertyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralarini	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI



Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari turlicha yondashuvlar orqali ochib berilgan. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish borasida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari o'rganilgan. Shuningdek, milliy sug'urta bozorining hozirgi holati, bozorning rivojlanganlik darajasi muhim ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan, xorij tajribasi o'rganilgan hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta kompaniyalari, sug'urta mukofoti, sug'urta bozori, fond bozori, IPO, investitsiya, sug'urta to'lovi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: In this article, ways to ensure the financial stability of insurance companies are revealed through various approaches. The work of scientists who conducted research to improve the financial stability of the company was studied. Also, based on important indicators, the current state of the national insurance market, the level of market development were analyzed, foreign experience was studied and conclusions were drawn.

Key words: insurance, insurance companies, insurance premium, insurance market, stock market, IPO, investments, insurance payments, financial stability.

Аннотация: В данной статье пути обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний раскрываются посредством различных подходов. Изучены работы ученых, проводивших исследования по повышению финансовой устойчивости компании. Также на основе важных показателей было проанализировано современное состояние национального страхового рынка, уровень развития рынка, изучен зарубежный опыт и сделаны выводы.

Ключевые слова: страхование, страховые компании, страховая премия, страховой рынок, фондовый рынок, IPO, инвестиции, страховые выплаты, финансовая устойчивость.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida sug'urta bozorining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini tezlashishiga yordam beradi. "AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy kabi G20 davlatlarida sug'urta to'lovlari har yili mamlakat yalpi ichki mahsulotining 4-17,4 foizini tashkil etadi. Bu sohada dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 7,3 foizga teng. Bu esa o'z navbatida sug'urta mukofotlarining keskin ortishiga sabab bo'lib, 2021-yilda u 3,3 foizga oshdi va jami 6,9 trillion dollarni tashkil etdi. Sug'urta mukofotlarining o'sishi dunyoning turli qismlarida turlicha bo'lib, xususan, Xitoyda 6,3 foiz, AQShda 1,7 foiz, G'arbiy Yevropa davlatlarida 2,8 foiz va rivojlanayotgan mamlakatlarda 5,6 foizni tashkil etdi" (Musayeva, 2023). Jahon sug'urta bozorining ijobiy tendensiyalari sug'urta kompaniyalarining mijozlar soni va faoliyat geografiasining kengayishi bilan bog'liq bo'lib, u yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, jahon sug'urta bozorini boshqarish doimiy takomillashtirish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishni talab qiladi, bu esa mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashga, kompaniyalarning raqobatbardoshligini va kompaniya imijini yanada yaxshilashga hamda moliyaviy barqarorligini oshirishga sabab bo'ladi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiya yuridik maktabining taniqli vakili va sug'urta bo'yicha mutaxassis professor V. I. Serebrovskiy (1927) Gobi nazariyasini fundamental g'oya sifatida ko'rib, "sug'urta kelajakdagi, noma'lum va tasodifiy ehtiyojlarni ko'plab odamlar o'rtasida taqsimlash shakli deb ataydi".

A. A. Romanova (2017) ilmiy maqolasida sug'urta bozoriga quyidagi ta'rifni keltirib o'tadi, "sug'urta bozori – bu mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi bo'lib, fond bozori bilan bir uyg'unlikda rivojlanib boradi. Sug'urta bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonining jadal rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqdir. Sug'urta bozori instrumentlarining ko'payishi va o'sishi – bu ishlab chiqarish hamda moliya sohasida globallashuv, integratsiya jarayonlarining ajralmas qismidir, shu sababli moliya bozorlarining o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi talab etiladi".

A. M. Godin (2009) ilmiy tadqiqot ishida "sug'urta bozorining moliya tizimidagi o'rni beqiyosdir, sababi turli xil moliya institutlariga sug'urta himoyasini taqdim etish bilan bir qatorda o'zining investitsion faoliyati va salohiyati orqali moliya bozorining asosiy o'yinchilariga aylanib boradi" - degan fikrlarni ilgari suradi.

Iqtisodiyotda sug'urta va fond bozorlari moliya bozorining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib, ular o'zaro faoliyat turlarini modellashtirishda, takomillashtirishda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. (Abdullayeva, 2022)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida guruhlash, qiyoslash, taqqoslash, sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta kompaniyalarining faolligi, moliyaviy barqarorligi sug'urta bozorining qanchalik taraqqiy etganligiga bog'liq hisoblanadi.


O'zbekistonda sug'urta bozori endi rivojlanayotgan bozorlardan hisoblanadi. Bugungi kunda sug'urta bozori holatini quyidagi jadvalda keltirilgan raqamlardan tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval: O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatkichlari

No	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Sug'urta xizmatlarining YalMdagi ulushi (foizda)	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8
2.	Aholi jon boshiga sug'urta mukofotlarining ulushi (ming so'm)	50,0	65,0	88,0	114,0	148,0
3.	Jami sug'urta mukofotlari (trln.so'm)	1,6	2,3	2,2	3,7	6,2
4.	Sug'urta kompaniyalarining jami ustav kapitali (trln.so'm)	0,5	0,8	0,9	1,0	1,2
5.	Sug'urta kompaniyalarining jami aktivlari (trln.so'm)	2,5	3,0	3,6	4,3	5,2
6.	Sug'urta kompaniyalarining jami investitsiyalari miqdori (trln.so'm)	2,0	2,5	3,3	4,1	5,3
7.	Sug'urta xizmatlari soni	105	115	135	155	175
8.	Hududiy bo'linmalar soni	1450	1500	1580	1660	1740

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatkichlarini 2018-2022-yillar bo'yicha tahlil qilsak, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan sug'urta kompaniyalari ustav kapitallarining minimal miqdori 2018-yilda 0,5 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilda kelib 1,2 trln. so'mga yetkazilganligi, 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 2,4 martaga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Sug'urta kompaniyalarining jami aktivlari 2018-yilda 2,5 trln. so'm, 2019-yilda 3,0 trln.so'm, 2022-yilga borib, 5,2 trln. so'mga, ya'ni taqqoslanayotgan 2018-yilga nisbatan qariyb 2,1 baravarga oshgan. Sug'urta xizmatlarining YalMdagi ulushi 2018-yilda 0,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 0,8 foizga, ya'ni 2 baravarga, sug'urta bozorining o'sish ko'rsatkichlarini belgilab beradigan asosiy omillardan biri bo'lgan sug'urta mukofotlarining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori 2018-yilda 50,0 ming so'mni tashkil etgan holda 2022-yilda 3 baravarga oshib, 148 ming so'mga yetgan.

Sug'urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlaridan biri sifatida sof sug'urta mukofotlari hajmini oshirish muhim hisoblanadi. Sof sug'urta mukofoti – sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta ta'rif stavkasiga asosan hisoblab chiqarilgan sug'urta polisi uchun to'langan pulning belgilangan muddatda (sug'urta shartnomasiga ko'ra) sug'urta xodisasi sodir bo'lmaganda kompaniya ixtiyorida qoladigan mablag' sof sug'urta mukofoti hisoblanadi.




1-rasm: O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari va to'lovlari hajmi dinamikasi, mlrd.so'm

Sof sug'urta mukofoti jami sug'urta mukofotlaridan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda qoplangan sug'urta to'lovlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi. 1-rasm ma'lumotlaridan ko'radigan bo'lsak, sug'urta bozorida sof sug'urta mukofoti yildan yilga oshganligini ko'rishimiz mumkin ya'ni 2018-yilda sof sug'urta mukofoti 1174,4 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 3600,0 mlrd.so'mgacha oshgan.

Mazkur amaliyot qo'shni Qozog'iston davlatida 2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra, sug'urta sektorining sof foydasi 87 milliard 241 million tengeni tashkil qildi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 165 foizga ko'pdir. Sug'urta sektori aktivlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,15 foizni tashkil etadi. Yalpi ichki mahsulotdagi sug'urta mukofotlarining ulushi esa 0,79 foizni tashkil etadi. Agar bir kishi boshiga sug'urta mukofoti miqdorini hisoblasak, har bir qozog'istonlik uchun 42 300 tengedan to'g'ri keladi.

Sug'urta amaliyotidan ma'lumki, sug'urta kompaniyalari sonining ortib borishi o'z navbatida ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari qamrovining kengayishiga, bu esa pirovard natijada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishi va sug'urta mukofotlari tushumining ko'payishiga olib keladi.

Sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari hajmining oshib borishi kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda kompaniyalar faoliyatida sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq risklarni ham oshishiga olib keladi. Buni biz sug'urta operatsiyalarining zararlilik ko'rsatkichiga qarab baho berishimiz mumkin.




2-rasm: Sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasi, foizda (Mamadjanov, 2023)



Sug'urta bozorining shiddat bilan rivojlanib borishi sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buni yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasi yildan yilga o'sib bormoqda. Ammo bu ko'rsatkichni salbiy deb ham bo'lmaydi. Buni ikki tomonlama tahlil qilish o'rinli. Birinchidan, sug'urta kompaniyalari tomonidan qabul qilingan sug'urta obyektlari bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida o'z vaqtida sug'urta to'lovlari to'lanishi natijasida mijozlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchini yanada ortishiga sabab bo'lsa, ikkinchidan, sug'urta uchun qabul qilinadigan sug'urta obyekti bilan bog'liq sug'urta xodisasi sodir bo'lish ehtimoli sug'urta xodimlari tomonidan jiddiy o'rganilmayotganligini sabab qilishimiz mumkin. Sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasini baribir salbiy deya olmaymiz. Chunki xorijiy tajribada bu ancha yuqori hisoblanadi, jumladan Yaponiya sug'urta bozori umumiy sug'urta tarmog'ida mazkur ko'rsatkich 64 foizni tashkil qiladi.

Jahon bozorida sug'urta kompaniyalari eng ko'p moliyaviy resurs to'planadigan soha sifatida e'tirof etiladi va bu jihat uni yirik investitsiya manbayiga aylantiradi. Sug'urta kompaniyasi boshqa moliyaviy tashkilotlar (banklar, fond birjalari, investitsion fondlar, pensiya jamg'armalari va boshqalar) bilan bir qatorda mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi hisoblanib, davlat moliya tizimining muhim bo'g'inini tashkil qiladi. Sug'urta kompaniyalarining ma'lum darajadagi pul oqimlarining to'planish va taqsimlanish tamoyili ularni yirik institutsional investor sifatida ham namoyon qiladi.

Sug'urta kompaniyalari o'z resurslarini investitsiya obyektlarini moliyalashtirish maqsadida yo'naltirish orqali ham moliyaviy barqarorlikka erishadi, sug'urta tizimi barqaror rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko'ra, sug'urtalovchilar investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlari orqali asosiy faoliyat bo'yicha majburiyatlarini bajarib, to'lov qobiliyatini mustahkamlaydi. Agentlikka ko'ra, 2022-yilda sug'urtalovchilar tomonidan 4,8 trln. so'm miqdorida investitsiya qo'yilmalari amalga oshirilgan va ularning 61 foizi bank depozitlariga to'g'ri kelgan (3-rasm).



3-rasm: Sug'urtalovchilar moliyaviy resurslarining investitsiya obyektlari o'rtasida taqsimlanishi (2022-yil) (Mavrulova, 2023)

Jahon sug'urtalovchilarining moliyaviy resurslari fond birjalari orqali harakatlanadi. Fond bozori kapitalning iqtisodiyot tarmoqlariga transformatsiyalanishiga imkoniyat yaratadi. Sug'urtalovchilarning fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish resurslarni ishonchli joylashtirishda, real ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashda, qo'shimcha resurslar jalb qilinishida muhim omil sanaladi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlaridan yana biri kapital bozorida ishtirokini ta'minlash hisoblanadi.

Moliyaviy xizmatlar bozorining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan fond hamda sug'urta bozorlari kapitalga muhtoj tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini rag'batlantiradi. "Bugungi kunda fond va sug'urta bozorining iqtisodiy islohotlarni tubdan yangilash jarayonidagi rolini oshirish hamda ularning o'zaro faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan sanaladi" (Abdullayeva, 2022). Sug'urta kompaniyalari fond bozorida, birinchidan, ustav kapitalini shakllantirish va ko'paytirish hamda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida; ikkinchidan, ularning faoliyat turidan, ya'ni vaqtincha jalb qilingan bo'sh mablag'larga egaligidan kelib chiqib ularni qimmatli qog'ozlarga



yo'naltiruvchi investor sifatida; uchinchidan, fond bozorida investitsiya vositachisi va risklarning taqsimlovchisi sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, O'zbekistonda birinchilardan bo'lib "O'zbekinvest" EISK AJ moliyaviy barqarorligini oshirishda IPO ni amalga oshirdi.

IPO (Initial Public Offering) – bu kompaniya aksiyalarining fond bozorida birlamchi taklifi. Kompaniya IPO o'tkazishga qaror qilganda, u birinchi marta investorlarga o'z aksiyalarini taklif qiladi. Taklif natijasida tashkilot ommaviy maqomga ega bo'ladi va qog'ozlarga ega bo'lish barcha uchun ochiq bo'ladi.

"O'zbekinvest" EISK AJ fond bozoriga chiqishni muvaffaqiyatli yakunladi. 2023-yil 15-dekabr kuni "O'zbekinvest" EISK AJ "Toshkent" RFBda qimmatli qog'ozlarni birlamchi ommaviy joylashtirishni (IPO) yakunladi. IPO yakuniga ko'ra arizalar kitobi 128,45 foizga imzolandi, bu esa investorlarning kafolatlangan daromadga yuqori qiziqishi va O'zbekistonning eng yirik sug'urta kompaniyasiga ishonchidan dalolatdir. Ta'kidlash joizki, jismoniy shaxslar "O'zbekinvest" IPO hajmining uchdan bir qismini sotib oldi: joylashtirilgan aksiyalarning 70,27 foizi institutsional, qolgan 29,73 foizi chakana investorlarga taqsimlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari ichida eng samaralisi bu kompaniyalarning fond bozorida ishtirokini ta'minlashdir. Rivojlangan sug'urta va fond bozoriga ega bo'lgan davlatlar tajribasi, bir qancha iqtisodiy olimlarning fikri shuni ko'rsatdiki, sug'urta kompaniyalarining fond bozorida faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyatning moddiy mablag'ga muhtoj bo'lgan qatlamini moliyaviy resurs bilan ta'minlashga, yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir iqtisodiy jarayonlarida vujudga keladigan xavf-xatarlarini minimallashtirishga, shuningdek, yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Sug'urta bozorida kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyasining o'z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o'z mavqeyini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg'or sug'urta kompaniyalarining tajribalarini o'rganish va o'z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta'minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsiya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug'urtalanuvchilarni ko'proq jalb qilish va mavjud sug'urtalanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko'rinishdagi qo'shimcha xizmatlar va bonuslarni qo'llashga, sug'urtalanuvchi manfaatlarini ko'proq e'tiborga oluvchi sug'urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo'llashga harakat qiladi. Shunday harakatlarni o'zining faoliyat mazmuniga aylantirgan sug'urta kompaniyalarining milliy bozorda ko'payishi oxir-oqibatda sug'urtalanuvchilar sonining ko'payishi, to'planayotgan sug'urta mukofotlarining sezilarli darajada oshishi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning ortishiga va bu orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musayeva D.D. O'zbekiston hududlari sug'urta bozorini tartibga solish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2023-yil. 55-bet.
2. Серебровский В.И. Страхование. М., 1927. С. 9
3. Романова А. А, Улыбина Л. К. (2017) Состояние и перспективы развития мирового страхового рынка. Региональная экономика и управление: электронный научный журнал // Номер журнала: №4 (52).
4. Годин А.М., Фрумина С.В. (2009) Страхование: Учебник. - М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К", –с. 36.
5. Abdullayeva N.A. Sug'urta kompaniyalarining fond bozorida faoliyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022 yil. 13-bet.
6. Mamadjanov Sh.J. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini sug'urtaviy himoyalash masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2023 yil. 62-bet
7. Mavrulova N.A. Umumiy sug'urta sohasini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2023 yil. 81-bet
8. Tursunov Jahongir Polatovich, Abdurakhmonov Ilyos Khurshidovich, Beknazarav Zafar Ergashevich. The effectiveness of the organization of activities of insurance intermediaries in the development of insurance networks. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020. Issue 04. P. 3888-3896
9. <https://kapdepo.uz> – O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi (broker, depozitariy, investitsiya maslahatchisi).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.